

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2023

6/3-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

6/3-сан 2023

декабрь

Шолкемлестириүшилер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириү Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Маңсет АЙЫМБЕТОВ	Лобар МУХТОРОВА
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Камаладин МАТЯКУБОВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ	Раъно ОРИПОВА
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Фуркат РАЖАБОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Сайёра РАХМОНОВА
Дилшодхұја АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Интизар АБДИРИМОВА	Барлықбай ПРЕНОВ
Мавлюда АЧИЛОВА	Дилшода САПАРБАЕВА
Нурийдин АЧИЛОВ	Феруза САПАЕВА
Тұлкин АЛЛАЁРОВ	Зайниддин САНАҚҰЛОВ
Мариғжон АХМЕДОВ	Қажхор ТУРСУНОВ
Умида БАХАДИРОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Фарҳад БАБАШЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Ботир БОЙМЕТОВ	Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Гулноз ТУРАЕВА
Шахло БОТИРОВА	Гулмира ТОЖИБОЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Аскәр ДЖУМАШЕВ	Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Амангелди КАМАЛОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Дилбар ҚАРШИЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ	Воҳид КАРАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Дилбар ҚОДИРОВА
Лола ИСРОИЛОВА	Ризамат ШОДИЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Абдушукур ШОФҚОРОВ
Аскәrbай НИЯЗОВ	Дилфузад ШАББАЗОВА
Сабит НУРЖАНОВ	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Захия НАРИМБЕТОВА	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Мехри НАРБАШЕВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Улфат МАҲКАМОВ	Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Уролбой МИРСАНОВ	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Нуржан МАТЧАНОВ	Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Сафо МАТЧОН	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Шукурилло МАРДОНОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Шахсанам МАТУПАЕВА	Қонысбай ЙОСУПОВ



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Raximova N. Xorijiy tilni o'qitish sharoitida bo'lajak tibbiyot mutaxassislarining umummadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati	7
Atamuratov R. Raqamlı transformatsiya - ta'lim samaradorligining asosi	14
Norov N. Husayn Voiz Koshifyning axloqiy qarashlarida adolat kategoriysi	21
No'monxonova M. Axborot texnologiyalari va bo'lajak tilshunoslarning kommunikativ kompetensiyalari metodikasini rivojlantirishi va hozirgi holati	26
Суюнов Б.Т. Тезаурус – лингвистик тараққиёт омили	33
Shofqorov A.M. Hamid Olimjonning takrordan foydalanish mahoratiga doir	39
Fayzimatova N. Kinship terms and teknonymy	44
Nazarova R. Effectiveness of teaching through riddle	51
Nishonova Sh. The role of gestures in effective communication	56

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Tilegenov A.T. Yoshlarda milliy g'oyani shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning metod va vositalari	61
Xalikov F. Ta'lim tizimida testologik texnologiyalardan foydalanishning pedagogik mazmuni	66
Rasulova G. Adabiy ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish	76
Baisov A. Umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitish muammolari	82
Mirsultanov I.M., Xasanov A.R. O'qituvchilik kasbida barqarorlikni shakllantirish muammosining mavjud holati	86
Jo'raev Yu.K. Pedagogik oliv ta'lim muassasalarida elektrotxnika fanini o'qitishda ta'lim usullaridan amaliy foydalanish yo'llari	90
Yo'ldosheva D. Kreativlikni rivojlantirish muammosiga doir xorijiy tadqiqotlarning retrospektiv tahlili	94
Tojiboyev J. Kreativ yondashuv asosida talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish mazmunini belgilashning pedagogik talablari	102
Siddiqov B. O'quvchilarning aksiologik kompetentligini rivojlantirish tushunchasi va tahlili	108
Mexmonaliyev Sh.N. Husayn Voiz Koshify ijodida axloqiy tarbiya masalalarining yoritilishi	113
Muminova D. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	120
Axmedov B.A. Muammoli ta'limda suqrotona yondashuv metodikasi	126
Bobomurodova L.E. Talabalarning kasbiy-metodik ijodkorligini rivojlantirish	131
Abdusattorov A., O'ranova N. O'zbek xalq cholg'ulari orkestiri vositasida bo'lajak musiqa fani o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodlari	136
Aliyeva M. Pedagogik amaliyat jarayonida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashirish	146
Ражабов X. Ракамли таълим муҳитида бўлажак кимё ўқитувчилари ахборот-методик компетентлигини такомиллаштириш муаммоси	151
Saydullayeva A. Ta'limda gender madaniyatni rivojlantirishda ijtimoiylashuv jarayonining pedagogik-psixologik ahamiyati	157
Mamayusupov J. Analistik tafakkurni rivojlantirishda pedagogning intellektual faolligi va uning o'ziga xos xususiyatlari	164
Toshaliyev D. Milliy musiqiy meros va unga o'quvchilarda aksiologik munosabati shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari	169
Shermatova Y.S. Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy metodlar	177
Yuldashev D.T., Maxammadaminova D.A. Aqli zaif o'quvchilar nutqining fonetik tomonidan buzilishi va ularni bartaraf etish yuzasidan logopedik ishlar	181
Oppoqxo'jayev X.A. Inkluyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilarni o'zini -o'zi rivojlantirish kompetensiyalarini rivojlantirish	189



HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING AXLOQIY QARASHLARIDA ADOLAT KATEGORIYASI

Norov N.J.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'lim boshlig'i*

Tayanch so'zlar: ijtimoiy adolat, axloq, ijtimoiy muvozanat, shamshir ahli, qalam ahli, muomala ahli, ziroat ahli, insonparvarlik tamoyillari.

Ключевые слова: социальная справедливость, этика, социальное равновесие, люди меча, люди пера, люди дела, люди земледелия, гуманные принципы.

Key words: social justice, ethics, social balance, people of the sword, people of the pen, people of dealing, people of agriculture, humane principles.

Kirish. Jamiyatning uzluksiz rivojlanishi natijasida insoniyatning ijtimoiy adolatga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib boradi. Bu o'rinda unga erishishning asosiy omili axloqiy tamoyillarga tayanish, jamiyat barcha a'zolarida axloqiy qarashlarni shakllantira olish hisoblanadi. Adolat o'zida nafaqat huquqiy, balki axloqiy talablarni ham aks ettiradi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda "Adolat" so'zi ming yillar davomida insonga hamroh bo'lib qurbanlar bergen. Adolat haqida juda uzoq gapirish mumkin. Ammo gap chiroyli va uzoq gapirishda emas, balki hayotda adolatni o'rnata olishda". Jamiyatda adolatni qaror toptirish muammolari bilan tarixda barcha olimlar, faylasuflar, davlat arboblari o'zining muayyan qarshlariga ega. Biz ana shunday shaxslardan biri bo'lgan Husayn Voiz Koshifiy va uning adolat haqidagi qarashlarini yoritishni maqsad qildik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XV asrning ikkinchi yarmida Xurosonda Alisher Navoiy atrofida to'plangan alloma, shoir va donishmandlar orasida mashhur va qomusiy talant egalaridan biri Voiz Koshifiydir. Kamoliddan Husayn Voiz Koshifiy tahminan 1440-yillarda Xuroson viloyatidagi Sabzavor shahrining Bayhaq kentida tug'ilgan. Boshlang'ich ma'lumotni Sabzavorda olgan. U arab, fors, turkiy tili, matematika, astronomiya, kimyo, musiqa, adabiyot, fiqh dan to'liq ma'lumotta ega bo'lgan. Yoshligidanoq voizlik so'z



san’ati bilan shug‘ullangan. Koshifyi Sabzavorda tez orada ko‘zga ko‘ringan voiz notiq bo‘lib tanilgan.

1468 yilning oxirlarida Abdurahmon Jomiyning tavsiyasi bilan Husayn Voiz Koshifyi Xirotgaga keladi va qolgan umrini asosan Xirotda Temuriylar rahnamoligida o‘tkazadi. Ma’lumki, XV asrning ikkinchi yarmida Temuriylar, xususan Husayn Boyqaro davrida Xirot Sharqning madaniyat markazi edi.

Husayn Voiz Koshifyi asarlarini o‘z davrining ilmiy tili fors tilida yozgan bo‘lib, undan ko‘pgina ilmiy, badiiy tarjima asarlari ham meros qolgan. U falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslilik, siyosat, tarix, kimyo, astronomiya, matematika, musiqa, voizlik, she‘r san’ati, din tarixi, fiqh, tibbiyot kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asar yozganligi manbalardan ma’lum. Koshifyining O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslilik va Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar institutlarida 45 nomdagisi asarlarining 197 qo‘lyozma va 75 toshbosma nusxalari saqlanmoqda.

Koshifyi ijodini o‘z davrining yirik tarixchisi Xondamir “Xulosat ulaxbor” asarida: “Ul janob nujum ilmida ham zo‘r mahoratga ega edi, chunonchi uning ta‘birlari Qazo o‘qi singari bexatar bo‘lardi. Uning balog‘atoyotlik hamda fasohatsifatlik kitoblari ko‘p va behisob bo‘lib, ularning ko‘pi oliymaqom amir Alisherning atoqli nomi bilan ziynatlangan. Amir Alisherning inoyati va iltifoti ul janobning hol sahifasiga hamma vaqt tushib turardi...” deb ta’riflaydi.[3] Alisher Navoiy “Majolis unnafois” asarining to‘rtinchi majlisida: “Mavlono ‘Husayn Voiz ‘Koshifyi’ taxallus qilur, Savzavorlikdur. Yigirma yilga yaqin borkim, shahardadur va Mavlono zufunun va rangin va purkor voqe’ bulubtur. On fan bulg‘aykim, dahli bo‘lmagay. Xususan va’z, insho va nujumki, aning haqidadur va har qaysida muttayyin va mashhur ishlari bor...” deb yuksak baholagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlashda obyektivlik, tarixiylik va qiyosiy tahlil metodlaridan foylanilib, kutubxonalardagi qo‘lyozma kitoblar hamda elektron manbalar asos qilib olindi.

Tahlil va natijalar. Adolat falsafiy-axloqiy tushuncha bo‘lib, ijtimoiy hayotda, davlat va jamiyat boshqaruvida muhim o‘rin egallaydi. Adolatning tushuncha sifatida qaror topishi, shakllanish evolyutsiyasi juda uzoq tarixga borib taqaladi. Xususan, adolatga intilish ibridoiy jamoa tuzumi davrida urug‘ ichida o‘ziga xos an’ana va urflarni shakllantirgan. Shuningdek adolatga intilib yashash keyingi barcha davrlar uchun ham o‘ziga xos o‘rin tutib, ijtimoiy hayotda bu tamoyilga erishish uchun axloq bilan o‘zaro uyg‘unlikni tiklashga, muvozanatni adolat va axloq asosida bo‘lishini ta’kidlagan ko‘pgina hukmdorlar hokimiyatni qo‘lga kiritganlaridan so‘ng berilgan barcha va’dalarini



unutganlar. Bu xolat har bir davr uchun o‘ziga xos an’anaga aylanib ulgurgan bir paytda Markaziy Osiyoda “Kuch-adolatda” degan tamoyil bilan hokimiyat tepasiga buyuk bobokalonimiz Amir Temur keldi. Xuddi shu davrdan boshlab esa bir qancha olimlar, faylasuflar adolatning ijtimoiy hayot taraqqiyoti uchun qanchalik muhim kategoriya ekanligiga bag‘ishlangan asarlar yarata boshladilar.

Xususan, temuriylar davrida Xurosonda yashab ijod etgan mashhur alloma, voiz axloqshunoslik ilmining o‘ziga xos namoyondasi Husayn Voiz Koshify o‘zining “Futuvvatnomai sultoniy”, “Axloqi muhsiniy”, “Risolai Hotamiya”, “Tasviri Husayniy”, “Javohirnama”, “Lavome’ul qamar”, “Lubbi Lubobi Masnaviy”, “Mahbubul zuhal”, “Bodoye’ul afkor fi sanoye’ul ash’or” va “Iskandar oinasi” kabi asarlarida axloqshunoslikningadolat, burch, vijdon, insonparvarlik, yaxshilik va yomonlik kabi tamoyillarini o‘ziga xos talqin qiladi va ijtimoiy ahamiyatini oolib beradi.

Shuningdek, Husayn Voiz Koshify “Axloqi muhsiniy” asarining 15-bobidaadolat tushunchasiga batafsил to‘xtalib o‘tadi va o‘ziga xos sharxlaydi. Uadolatni xalqning huquqiy tengligini ta’minlovchi muhim kategoriya sifatida baholab, “Adl shunday ziynatdirki, u mamlakatga oroyish beradi, bir quyoshki, uning nuri bilan zulmat yorug‘likka aylanadi” deb, ta’riflaydi.

Shunday ekan,adolat mutafakkir bergan ta’rifga ko‘ra insonning eng yaxshi fazilati,adolatsizlik esa insonlardagi eng yomon illat ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Insoniyatning tobora jaholat botqog‘iga botib borishi, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan global ma’naviy inqirozlarning barchasiadolat mezonining buzilishi oqibatida yuz berayotganligiga ajablanmasak ham bo‘ladi. Alloma bu xususdaadolat yo‘q joyda zaifu bechoralar qaqshatiladi deydi. Zaiflar halok bo‘lgach, unda jamiyatda kuchlilar ham qolmasligi va buning oqibatida jamiyatda muvozanat buzilishi mumkinligini ta’kidlab o‘tadi. Chunki har qaysi jamiyatda ham kichiklar bilan ulug‘larning turmushlari bir-biriga bog‘liqdir. Adolat yo‘q joyda xalqning axvoli yaxshi bo‘lmaydi.

Shunday ekan,adolat xalqaro tenglikni ta’minalashdir, ya’ni bir guruh ikkinchi bir guruhdan ustun qilinmaydi, har bir toifa o‘z martabasida tutiladi.

Jumladan, mutafakkir podshohlarning (boshqaruvchilarning) tobe’lari aslida to‘rt guruhga bo‘linishini ta’kidlab o‘tadi:

Birinchisi, shamshir ahli, chunonchi, amirlar va lashkarlar bo‘lib, ular olovga o‘xshaydilar. Ikkinchisi, qalam ahli, chunonchi, kitobdor va vazirlar bo‘lib, ular havoga o‘xshaydilar. Uchinchisi, muomala ahli, chunonchi, savdogar va hunarmandlar bo‘lib, ular suvgga o‘xshaydilar. To‘rtinchisi, ziro-at ahli, chunonchi, dehqonlar bo‘lib, ular tuproq sifatlibo‘ladilar[6]. Ko‘rib turganizdekkalloma boshqaruvchilarga to‘be bo‘lishi lozim bo‘lgan insonlarni



olamni yaratilishiga asos bo‘lgan to‘rt unsurga o‘xshatadi. Bizga ma’lumki bu unsurlarning birining buzilishi yoki birining o‘rnini boshqasi bosishga harakat qilganda tabiatdagi muvozanat buziladi, bundan esa tartibsizlik vujudga keladi. Xuddi shunday holat boshqaruvchiga tob‘e bo‘lgan to‘rt toifa vakillarida ham namoyon bo‘lsa, birinchi toifa ikkinchi toifa ustidan nazorat o‘rnatishga harakat qilsa unday jamiyatda tartibsizlik paydo bo‘ladi. Albatta, bu g‘oya nafaqt alloma yashagan davr uchun balkim, bugungi kun uchun ham o‘ta dolzarb g‘oyadir. Shunday ekan, alloma uchun adolat insonparvarlik tamoyiliga xizmat qilishiga guvoh bo‘lamiz.

Bundan tashqari boshqaruvchilar domiy ravishda o‘z xalqiga va qo‘l ostidagilarga nisbatan xatto niyat qilganda ham adolat qilish haqida o‘ylashlari lozim. Chunki boshqaruvchining niyati va so‘zida har bir sohaga ta’siri kuchli bo‘ladi. Agarda boshqaruvchi adolatni niyat qilsa xalqda barakat va xotirjamlik bo‘ladi. Agar niyatida zulm qilish bo‘lsa mamlakatdan baxt va baraka ketadi, xalqning xotirjamligi va turmushiga putur yetadi.

Xususan, bugungi kunda biz guvohi bo‘layotgan siyosiy jarayonlarda ham buni ko‘rishimiz mumkin. Mamlakatini adolat asosida boshqarishga niyat qilgan va shu yo‘lda tinimsiz mehnat qilayotgan boshqaruvchilar davlatlarida tinch totuvlik va osoyishtalik hukm surayotgan bo‘lsa, hokimiyatga g‘araz niyatda kelgan xalq ahvoliga qiziqmasdan faqatgina o‘z manfaatlarini ko‘zlayotgan davlat boshliqlarining xalqi azobda, notinch sharoitda yashab kelmoqda.

Shu o‘rinda alloma asarda Shayx Muslihiddin Sa’diydan shunday misralarni keltirib o‘tadi:

*Bu tavr o‘lg‘ilki, qilsang har na niyat,
Aningdin yaxshiliq tobqay raiyat.
Agar qilsa, yamon andisha sulton,
Bo‘lur andin jahonning nazmi vayron.*

Bundan kelib chiqadiki adolat barcha sifat va fazilatlarning yaxshirog‘i, zulm esa hamma niyatlarning yomonrog‘idir. Adolat natijasida tinchlik xotirjamlikka, qishlog‘u-shaharlarning obodligiga erishiladi. Zulm natijasida esa mamlakat tanazzulga yuz tutadi.

“Adl natijasi-deb yozadi u, -Mulk boqi-yu, mamlakat vasig‘ va hazona ma’mur, kentlar va shaharlar obod bo‘lmoqdur. Va zulm samarasи mamlakat zavol topmog‘i erur”. Shunday ekan, jamiyatda axloqiy qadriyatlar adolat mezonlari bilan muvofiqlashsagina uning amaliy ahamiyati yuksak bo‘ladi. Ma’lumki, axloq – kishilar xatti-harakatlarining jamiyat tomonidan baholanishidir. Kishilar uchun ma’qul bo‘lgan harakatlar yaxshilik, aksincha bo‘lsa, yomonlik sifatida qabul qilinadi. Jamoa uchun zarar keltirish mumkin



bo‘lgan ishlar hamma zamonlarda ham qoralangan. Yomonlik qiluvchilarga nisbatan adolat tamoyillari asosida jazo qo‘llanilgan.

Xulosa.Insoniyat ijtimoiy, axloqiy taraqqiyoti davomida adolatga intilib yashab kelmoqda. Mustabidlik, jabr-zulm va huquqsizlikka qarshi kurashib jamiyatdagi o‘z o‘rniga ega bo‘lishda tinimsiz harakat qilib kelmoqda. Shunday ekan, insoniy fazilatlarni va ayniqsa axloqshunoslikning adolat tamoyilini chuqur falsafiy tadqiq etgan alloma Husayn Voiz Koshifyning qarashlari nafaqat o‘z davri uchun balki barcha davrlar uchun birdek ahamiyatlidir. Chunki alloma hech qanday millat tanlamasdan, hech qanday toifa manfaatlarini himoya qilmasdan barcha uchun birdek tushunarli va ahamiyatli bo‘lgan tushunchalarni insonparvarlik nuqtai nazaridan baholagan.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. – T.: O‘zbekiston, 1998. – 111-112 b.
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Xondamir. “Xulosat ulaxbor” asari. (ziyo.net)
4. Alisher Navoiy. “Majolis umnafois” asari. (ziyo.net)
5. Husayn Voiz Koshify. – T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 161 b.
6. Husayn Voiz Koshify. – T: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 164 b.

РЕЗЮМЕ

Maqlolada mashhur notiq Husayn Voiz Koshifyning axloqiy qarashlari, uning adolat hamda uni qaror toptirish borasidagi fikrlari falsafiy tahlil qilingan. Alloma asarlarining bugungi kun dolzarb muammolarini hal qilishdagi o‘rnii va roli ulardagisi adolat kategoriyasini keng targ‘ib qilish misolida yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлен философский анализ нравственных взглядов известного оратора Хусейна Ваиза Кошифи, его размышлений о справедливости и ее определении. Место и роль произведений Алломы в решении актуальных проблем современности поясняется на примере широкой пропаганды в них категории справедливости.

SUMMARY

The article presents a philosophical analysis of the moral views of the famous orator Husayn Vaiz Koshifi, his thoughts on justice and its determination. The place and role of Alloma’s works in solving the current problems of today is explained by the example of wide promotion of the category of justice in them.